



ТИЛШУНОСЛИК ВА АДАБИЁТШУНОСЛИКНИНГ ДОЛЗАРЪ МАСАЛАЛАРИ



НУКУС

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

АЖИНИЁЗ НОМИДАГИ НУКУС ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА
ИНСТИТУТИ

**ТИЛШУНОСЛИК
ВА АДАБИЁТШУНОСЛИКНИНГ
ДОЛЗАРҒ МАСАЛАЛАРИ**

(Республика илмий-амалий анжуман материаллари)

НУКУС – 2019

O'z vatanidan uzoqda bo'lishiga qaramasdan sodiqligini yo'qotmadi. Vatanga bo'lgan muhabbatgina uni kuylashga chorladi. Va mana shu tufayli u hozir ham vatandoshlari ardoga barhayot yashamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hayne. Germaniya. Qish ertagi. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1984.
2. <https://ziyouz.uz>.

“H” VA “X” UNDOHLARINI O'RGATISH HAQIDA MULOHAZALAR

SH.YULDASHEVA,
p.f.n., dotsent
S.JUMAMURATOVA,
Nukus DPI 3-kurs talabasi

“X” va “H” tovushlarning aytilishi bir-biriga yaqin bo'lganligi uchun aksariyat o'quvchilar, hatto kattalar ham yozuvda ularni noto'g'ri qo'llaydilar, imlo xatolarga yo'l qo'yadilar. Lotin yozuviga asoslangan alifboni isloh qilish bo'yicha, ayrim harflarga tuzatish kiritish yuzasidan muhokamalarda x va h harflaridan faqat bittasini alifboda qoldirish yuqoridagi muammoni hal qilishi mumkinligini taklif qilayotganlar ham ko'pchilikni tashkil qiladi. Tilshunos olim R.Jomonov ikki tovushni bitta qilish tarafdorlari avval ham bo'lganligi, bu takliflar lotin alifbosining XX asr birinchi yarmida iste'molga kiritilishi chog'ida ham bildirilganligi haqida ma'lum qiladi⁴³.

Kirill yozuvi asosidagi alifbomizda ikkita harfning shakli nihoyatda o'xshashligi, faqat bitta ilmoq bilangina ajralib turishi tufayli (Xx, Xx) ular farqlanmasdan xatolarga sabab bo'ladi, deb xulosa qilganimizda adashar ekanmiz. Yangi alifboda ularning shakli tamomila farqlanadi, ammo x yoki h undoshlarini to'g'ri yozish odatga aylanmadi.

Umumta'lim maktablarining 5-sinflari uchun chop qilingan “Ona tili” darsligidagi 115-dars – “Bo'g'iz tovushi”; 134-dars – “X, x va H, h harflari” mavzulari bo'yicha taqdim qilingan nazariy ma'lumot va mashqlar tahlilidan ma'lum bo'ldiki, avvalo, bu undoshlar talaffuzi, imlosi, ularning farqli jihatlari bo'yicha muayyan qoidalarini ishlab chiqish, so'ngra mashq va topshiriqlar tizimini yaratish zarurati mavjud. Nazarimizda, h undosini “O'pkadan chiqayotgan havoning bo'g'izda qisilishidan hosil bo'lgan tovushga bo'g'iz tovushi deyiladi” [1.130], deb qoida berish kifoya qilmaydi.

X va h undoshlarining qo'llanilishi bilan bog'liq ayrim eslatmalar berilishi o'quvchini xatolardan xalos qilishi mumkin, masalan, e unlisidan so'ng h; i unlisidan so'ng x undoshi yozilishini eslatib o'tish joiz: *ehitirom, ehtiyot; ixlos, ixtiyor* kabilar. *Saxiy, saxovat* kabi ma'nosi yaqin so'zlarning x bilan yozilishi, *bahs, bahslashmoq, mubohasa* kabilarda doimo h yozilishi eslatib o'tilsa, o'quvchilar bu kabi holatlarni eslab qoladilar, to'g'ri yozishga odatlanadilar.

X va h undoshlarini o'rganishga tavsiya qilingan mashqlar ham talabga javob bermaydi (368-mashq. H va x tovushlari ishlatilgan xalq maqollarini o'qing, ularning ishlatilish o'rinlariga alohida diqqat qiling; 417-mashq. O'qing, undoshlarning talaffuziga e'tibor bering). Nazarimizda, chalkashlik, xatolar nisbati ko'p uchraydigan ikki tovushning talaffuzi va yozuvda aks etishi bo'yicha og'zaki emas, balki yozma mashqlarni bajartirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kichik tadqiqotimizni o'tkazish jarayonida umumta'lim maktablarida “Bexato yozamiz” deb nomlangan ta'limiy o'yinni o'tkazish kutilgan natijaga yaqinlash-tirishi mumkinligini aniqladik.

Ta'limiy o'yinni o'tkazishda o'quvchilar 3 ta guruhga ajratiladi, har bir guruhga alohida topshiriq beriladi. Ular quyidagicha:

1-topshiriq. H va x undoshlarining so'zlarning boshida qo'llanilishiga 5 ta so'z yozing.

2-topshiriq. H va x undoshlarining so'zlar o'rtasida kelishiga 5 ta misol yozing.

3-topshiriq. H va x undoshlarining so'zlar oxirida kelishiga 5 ta misol keltiring.

Har qaysi harfga alohida 5 ta so'z va jami 10 ta so'z yoziladi. Guruhlar yozib bo'lganlaridan so'ng guruhlarining qog'ozlari almashtiriladi, ya'ni belgilangan vaqt davomida bir guruh ikkinchisining qanday bajarganini tekshiradi. Muddat tugagach, aniqlangan xato va kamchiliklar o'qib eshittiriladi. Guruhlarning ishlarini almash-tirishdan maqsad esa nafaqat o'ziga berilgan topshiriqni, balki boshqa guruhlardagi topshiriqlarga ham e'tibor qaratishlariga, x va h undoshlarining so'zlarning turli o'rinlarida kelishiga ahamiyat qaratishiga erishishdan iborat. Guruhlar bexato va to'liq yozganligiga qarab baholanadi. Ushbu metod o'quvchilarni topqirlikka, chaqqonlikka undaydi.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti olimlari va talabalari tomonidan o'quvchilarning x va h undoshlarini to'g'ri yozishi uchun dastur tayyorlanayotgani alohida ahamiyatga ega. Dastur Writer h va xdeb nomlahadi. Mazkur dasturning imkoniyatlari:

- dastur bazasiga yangi so'zlarni kiritish mumkin;
- mavjud so'zni muqobili yoki to'g'ri variantdagisi bilan almashtirish;
- lug'at oynasi bilan ishlash;
- ushbu dasturda cheklanmagan miqdorda x va h harflari qatnashgan so'zlarni

kiritish ko'zda tutilgan;

– x va h harflari qatnashgan so'zlar avtomatik tarzda tog'rilanmaydi, foy-dalanuvchi o'zi to'g'rilashi talab etiladi. Bu esa xatoning takrorlanishining oldini oladi;

- ushbu dastur orqali o'quvchilar o'z bilimini baholay oladi;
- o'quvchilar nutqini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega;
- mustaqil til o'rganuvchilar uchun ham foydali [2.71-73-betlar].

O'ylaymizki, dastur ishga tushirilsa, o'qituvchi uchun ham, o'quvchi uchun ham x va h undoshlari bilan bog'liq xatolarni bartaraf qilish, savodxonlikni o'stiruvchi yordamchiga ega bo'ladilar.

⁴³ Jomonov R. Xmi yoki H. – Toshkent, 2010. 6-b.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudov N. va boshqalar. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. – Toshkent: Ma'naviyat. 2015.
2. Til va adabiyot: ilmiy va amaliy izlanishlar yo'lidagi ilk odimlar (Talabalarining II ilmiy-amaliy anjumani materiallari). – Toshkent, 2018.

MILLIY LIBOSLAR. KO'CHIRMA GAPLAR, ULARDA TINISH BELGILARINING QO'LLANISHI

D.XALMURATOVA,

*Nukus shahar 38-sonli maktabning
oliy toifali ona tili va adabiyoti o'qituvchisi
S. JUMAMURATOVA Nukus DPI 3-kurs talabasi*

Fan: O'zbek tili (Davlat tili)

Sinf: 10-sinf

Mavzu: Milliy liboslar (Ko'chirma gaplar, ularda tinish belgilarining qo'llanishi)

Darsning ta'limiy maqsadi:

Sintaksis bo'limi bo'yicha o'quvchilarning olgan bilimlarini takrorlash asosida mustahkamlash, o'rganilgan mavzularda o'zaro suhbatlashish va bahslarda ishtirok eta olish ko'nikmalarini shakllantirish;

Darsning tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarga o'zbek tilining boy imkoniyatlarini tushuntirgan holda o'zbek xalqining ma'naviy merosiga muhabbat uyg'otish, asarlarni mustaqil o'rganish orqali bilimini oshirib borishga o'rgatish;

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: O'quvchilarning og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish, mustaqil fikrlashga, xalqlarning tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab-asrashga o'rgatish

Dars uslubi: Interfaol.

Dars shakli: Erkin fikrlash.

Dars jihozlari: Har xil kiyimlardan namunalar, tarqatmalar, ko'rgazmali qurollar, rangli rasmlar.

Vaqt taqsimoti:

1. Tashkiliy qism. (2 daqiqa)
 3. A.Qodiriyning "Mehrobdan chayon" asaridan parcha o'qib muhokama qilish. (3 daqiqa)
 4. Yangi mavzu. (20 daqiqa)
 5. Yangi mavzuni mustahkamlash. (10 daqiqa)
 6. Yakuniy qism. (2 daqiqa)
- Dars jarayoni: Salomlashish;
Davomatni aniqlash;
O'quvchilarni faollashtirish

II. Uyga vazifani so'rash

O'quvchilar "Abdulla Qodiriyning hayoti va ijodi" haqida gapirib beradilar. O'quvchilarga o'tilgan mavzu yuzasidan savollar yozilgan qirgma qog'oz tarqatiladi.

Savollarni quyidagicha tuzish mumkin. Masalan:

1. A.Qodiriyning she'rlarini sanab bering.
2. A.Qodiriy qanday nasriy asarlar yozgan?
3. "Mehrobdan chayon" asarining bosh qahramonlari kimlar?
4. Asardan olingan parchada kimlar bahslashadi?

II. Yangi mavzu bayoni

**Milliy kiyimlar (Ko'chirma
gaplar, ularda tinish belgilarining
qo'llanishi)**

O'quvchilar tomonidan "Milliy liboslar" matni "Zanjir" usulida o'qiladi. O'quvchilar hikoyani tinglab, o'z fikr mulohazalarini bildiradilar. O'qituvchi ularning fikrini tinglab, savollar beradi.

Milliy liboslar o'zbek xalqining boy madaniy an'analari, turmush tarzi va boy tarixiy ildizlaridan darak beradi. O'zbek milliy kiyimi— o'zbek xalqining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi qadimgi davrlarda yaratilgan va hozirgi kunlarda foydalaniladigan, madaniyati va tarixi bilan uzviy bog'liq bo'lgan kiyimlardir. Milliy kiyimlar har bir mintaqada o'ziga xos farq va xususiyatlar bilan ajralib turadi.

✦ **Erkaklar va ayollar kiyimlari qanday farqlanadi?**
Qaysi millatning milliy kiyimlarini bilasiz?

Textaga jadval ilinadi. O'quvchilar 2 guruhga bo'linadi va navbat bilan jadvalni to'ldiradi. Buni boshqacharoq usulda o'tkazish ham mumkin. Masalan:

<i>Qurbaniyazov G.</i> Qoraqalpoq guruhi talabalariga frazemalarni o'rgatishda Venn diagrammasidan foydalanish.....	3
<i>Qurbaniyazov G., Xaitbaev O.</i> Фразеологизмларнинг ўзбек тилшунослигида ўрганилиши.....	7
<i>Ҳамдамов У.</i> Матал, маталчи ва халқ оғзаки ижоди ҳақида.....	11
<i>Носиров А.</i> Одил Ёкубовнинг «Диёнат» романида бадий психологизм талқини.....	14
<i>Юлдашева Ш.</i> Рақамли таълим технологиялари «Рақамли Ўзбекистон – 2030» дастури учун пойдевор.....	17
<i>Yuldasheva SH., Yusupova G.</i> Til o'rgatish va mobil ta'lim afzalliklari.....	20
<i>Niyozmetova R., Sultanova A.</i> O'zbek tili darslarida ta'lim texnologiyalari vositasida gapning ikkinchi darajali bo'laklarini o'rgatish.....	25
<i>Mam'ukubova T.</i> Ипк ва кўшиқ тушунчаларининг гафурона талқинлари.....	27
<i>Sultanova A., Melisova S.</i> Ona tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini o'stirish va odob-ikromlilikka tarbiyalash.....	32
<i>Bobojonov F., Yusufova D.</i> O'quv jarayonining samaradorligini oshirishda zamonaviy o'qitish uslublarining ahamiyati.....	33
<i>Нурабуллаев Б.</i> Мустақиллик даври қорақалпоқ мемуар жанрининг ижтимоий-психологик асослари.....	35
<i>Qurbaniyazov G., Kilicheva M.</i> Fonetik bilim – nutq o'stirishning muhim omili.....	38
<i>Қадиров Қ.</i> XX асрнинг 20 йилларидаги тилшунослик манбаларида равишдошнинг изоҳланиши.....	41
<i>Qurbaniyazov M.</i> «Қисаси Рабғузий» асарида тарихий ҳақиқат бадий талқини.....	44
<i>Ўразбоев П., Сапарбоева Г.</i> Шойим Бўтаевнинг «Шоҳ» романида образ ва ғоя уйғунлиги.....	47
<i>Kazakov I., Masharipova U.</i> O'zbek va qoraqalpoq tillarida sifat yasovchi -siz va -siz qo'shimchalarining qiyosiy tadqiqi.....	49
<i>Тўлибоев Х.</i> Роман поэтикасида киновий-пародик усул талқини.....	51
<i>Янгибаева Н.</i> XX асрнинг биринчи чорагида матбуотда лексикология масаласининг ўрганилиш тамойиллари.....	54
<i>Ешимбетов О.</i> Ўқувчилар нутқни ўстиришнинг ижтимоий-психологик омиллари.....	56
<i>Кабулова З.</i> Қорақалпоқ модерн шеърисида янгилашиллар давомийлиги.....	58
<i>Балтаева З.</i> Эркин Воҳидов лирикасида образlilik.....	60
<i>Бабаджанов М.</i> Ўзбекча-қорақалпоқча таржималарда фразеологизмларнинг ифодаланиши хусусида.....	62
<i>Алламберганов Х.</i> Халқ эртақларида ғайритабiiй ва заминий элементларнинг қориликлиги.....	63
<i>Allamberganova N., Sa'dullayeva A.</i> Chingiz Aytmatov – benazir adib.....	67
<i>Бекбоев Б.</i> Аҳмад Аъзамнинг «Тил номуси» китоби ҳақида баъзи мулоҳазалар.....	69
<i>Давлетова Г.</i> Иқбол Мирзо ижодида мавзу ранг-баранглиги тараннуми.....	71
<i>Калмурзаева Б.</i> Шукур Холмирзаевнинг ҳикоянавислик маҳорати.....	73
<i>Репназарова Д.</i> Замонавий ҳикоячиликда мифологик талқин ўзига хослиги.....	76
<i>Сапарбоева Н.</i> Адабиёт дарсларида эпик асарларни таҳлил қилиш усуллари.....	78
<i>Қосимбетова Қ.</i> Истиқлол даври адабий танқидчилигида Абдулла Қодирий ижодининг ўрганилиш тамойиллари.....	81
<i>Ўтениязова Н.</i> Лукмон Бўрихоннинг «Жазирамадаги одамлар» романида Лола образи бадий талқини.....	83
<i>Ўтемураева С.</i> У.Ҳамдамнинг «Исён ва итоат» романи ҳақида баъзи мулоҳазалар.....	85
<i>Хўжамуратова В.</i> Исажон Султоннинг «Онаизорим» қиссаси поэтикаси.....	87

<i>Фархадова Б.</i> Фитратнинг «Абулфайзхон» трагедиясида образлар системаси.....	90
<i>Allanazarov E., Jolimbetova Sh.</i> Feyil bir bas aғzali gáplerdi «Venn diyagrammasi» usilinan paydalanip oqitiw usullari.....	92
<i>Bekchanova S.</i> «Susambil» ertagini o'rgatishda lug'at ustida ishlash.....	94
<i>Tangboeva P.</i> Улуғбек Ҳамдамнинг «Йўл» фалсафий романи бадияти.....	96
<i>Kabulova D.</i> Ta'limdagi innovatsiya.....	98
<i>Kabulova D., Raximbayeva R.</i> 3-sinf ona tili fanidan «So'z turkumlari» mavzusidagi bir soatlik noan'anaviy dars ishlanmasi.....	100
<i>Yeshimbetova D., Erjanova M.</i> Zamonaviy she'riyatda mavzu o'ziga xosligi.....	103
<i>Сапарбоев Э.</i> Қорақалпоқ диёрининг кўхна обидалари номлари хусусида.....	105
<i>Shamuratova Y.</i> Zamonamiz uchun haqiqiy ibrat.....	107
<i>Baymenova K.</i> O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini shakllantirishda ona tili va chet tili fanining hamkorligi.....	109
<i>Karimbayeva Sh.</i> Elektron ўқув-услубий мажмуаси.....	112
<i>Safarboyeva Sh.</i> Haynrix Hayne ijodida ijtimoiy masalalar talqini.....	114
<i>Yuldasheva SH., Jumamuratova S.</i> «H» va «x» undoshlarini o'rgatish haqida mulohazalar.....	116
<i>Xalmuratova D., Jumamuratova S.</i> Milliy liboslar. Ko'chirma gaplar, ularda tinish belgilarining qo'llanishi.....	118
<i>Yuldasheva SH., Jumamuratova S.</i> Qo'sh undoshlar talaffuzi va imlosi.....	122
<i>Yuldasheva SH., Jumamuratova S.</i> Imlo xatolarni tasniflash va ularni bartaraf etish yo'llari.....	124
<i>Abdullaev H.</i> Donishmandlar til odobi haqida.....	125
<i>Reimbayeva L.</i> Istiqlo'l va o'zbek qodiriyshunosligi.....	127
<i>Mavlanova M.</i> Buyuk darg'alarimiz asarlarida komil inson tushunchasi.....	129
<i>Sultonov I.</i> 3-sinf ona tili fanidan «So'z turkumlari» mavzusidagi bir soatlik noan'anaviy dars ishlanmasi.....	131
<i>Botirova G.</i> Abdulla Qodiriy hayoti va uning «O'tkan kunlar» asarini o'qitishning o'ziga xos usullari.....	133
<i>Ergashev M.</i> Tog'ay Murodning «Otamdan qolgan dalalar» romanidagi Dehqonqul obrazi tavsifi.....	135
<i>Xamdamova G.</i> Chingiz Aytmatovning «Asrga tatigulik kun» asarini o'qitishning o'ziga xos usullari.....	137
<i>Qozoqboyeva Q.</i> Bir ayol nigohida.....	138
<i>Babajanova G.</i> Umumta'lim maktablarida Sergey Yesenin hayoti va ijodini o'rgatish.....	139
<i>Болтабоев О.</i> Замонавий романда рухий таҳлил талқини.....	141
<i>Kdirbaeva Z.</i> O'zbek tili darslarida izchillik va tizimlilik.....	143